

NAZARIY VA AMALIY TA'LIM: QAY BIRI MUHIM

Xusainova Dilrabo Ibragimjanovna

Farg'onha viloyati yuridik texnikumi yuristlar uchun ingliz tili fani o'qituvchisi
3-darajali yurist

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11000625>

Annotatsiya. Ushbu maqolada prfissonal, o'z ishining ustasi , har taraflama bilimli kadr bo'lish uchun nazariyaningmi yoki amaliyotningmi ahamiyati yuqori degan savolga batafsil javob berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nazariya, amaliyot, professionalizm, ko'nikma, bilim, yuksalish.

THEORETICAL AND PRACTICAL EDUCATION: WHICH ONE IS IMPORTANT

Abstract. This article provides a detailed answer to the question of whether theory or practice is more important to become a professional, a master of one's work, and an all-round knowledgeable staff.

Key words: Theory, practice, professionalism, skills, knowledge, growth.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: КАКОЕ ВАЖНО

Аннотация. В данной статье дан развернутый ответ на вопрос, что важнее — теория или практика, чтобы стать профессионалом, мастером своего дела и всесторонне знающим персоналом.

Ключевые слова: Теория, практика, профессионализм, навыки, знания, рост.

KIRISH

Ta'lism-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda munosib o'rin egallashga qodir bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lism muassasalarida ta'lism – tarbiya sifatini mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda.

Ta'lism tizimini yuqori bosqichga ko'tarishda tafakkur va yuqori bilimga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lism muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarini joriy qilgan holda zamonaviy ta'lism dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek , pedagogika sohasida ta'lism, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadidda 2022-yil 21-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lism sifatini oshirish va pedagog

kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida “gi PQ -289-sonli qarori qabul qilindi.

Mukammal kadr bo‘lish uchun nazariyaning ahamiyati juda yuqoridir. Chunki har qanday ma’lumotlarni kitoblardan o‘ishimiz, ko‘plab muammolarga kitoblardan javob topishimiz, o‘z mutaxassislaigimizning barcha yo‘nalishlari haqida chuqurroq ma’lumotlarni ham kitoblardan nazariy bilimlar olgan holda ega bo‘lishimiz mumkin.

Ammo faqatgina nazariya bilan cheklanib qolish ham kadrning rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi. Chunki o‘ta professional insonlarning orqasida ham boy tajriba yillar davomida qilingan mehnat va amaliyot yotadi

Amaliy kasbiy ta’lim metodlari quydagi asosiy uch gurux (kategoriya)ga ajratiladi, ular: og‘zaki, ko‘rsatmali va amaliy metodlar. Ushbu metodlarga qisqacha ta’rif berib o‘tamiz. Og‘zaki metodlarga o‘quv materialining o‘qituvchi tomonidan og‘zaki bayon qilinishiga, tushuntirish va suxbat orqali o‘quvchilarga yetarli axborotlarni berib borishi nazarda tutiladi.

Tushuntirish metodi – kasbiy obekt, xodisa va jarayonning qonuniyatlarini tushunchalarining belgilarini o‘quvchilarga og‘zaki yetkazib berish orqali o‘qitish. Tushuntirish mazmuni va metodikasining xususiyatlari:

1. Boshqa metodlar va metodik usullar bilan uyg‘unligi.
2. Jumlalarning qisqa va aniqligi, yo‘riqli ko‘rsatmalar va tushuntirishlar.

Tushuntirish metodida o‘qituvchi – kasb ta’limi ustasiga qo‘yilgan talablar:

- Adabiy va texnik savodhonlik.
- Nutqning xissiyotga boyligi
- Eng maqbul ovoz balandligi va tezligi.

Suxbat metodi – o‘rganilgan yoki yangi materialni “savol–javob” so‘zlashuv yo‘li bilan baxolash yoki tushuntirish bo‘lib, o‘quvchilar o‘quv–ishlab chiqarish ishlari muxokaamasida faol ishtiroy etadilar.

Ko‘rgazmali metodlar – bu ta’lim berish jarayonida berilayotgan bilimlarni har xil ko‘rgazmali o‘quv qurollardan foydalangan holda o‘qitish nazarda tutiladi. Ko‘rgazmali o‘quv qurollari quydagicha bo‘lishi mumkun: Asliy o‘quv qurollari – asbob uskunalar yoki uning qismlari, taylor maxsulot namunalari yoki uning bo‘laklari va hokazolar. Tasviriy o‘quv qurollari–plakatlar, chizmalar, jadvallar, o‘quv ishlab chiqarish hujjatlari, o‘quv obyekti rasmlari va hokazolar. Aralash o‘quv qurollari–harakatlanuvchi plakatlar, elektron chizmalar va shukabi ham tasviriy ham asliy nusxalar.

Ko‘rgazmali metodning vazifalari turlicha bo‘lishi mumkun. o‘qituvchi mavzuni tushuntirishda yoki o‘rganilayotgan fan bo‘yicha aniq ko‘rgazma sifatida, yangi axborotlarni

berishda ko‘tgazmali metoddan samarali foydalanish mumkun.

Amaliy metodlar – berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qollashni o‘rgatish. Ya’ni o‘quvchilarda amaliy bilimlarni irivojlantiriladi. Ushbu metodni qollashdan maqsad – o‘quvchilarda yetarli ko‘nikma va malakalarni shakillantirish uchun amaliyot va labaratoriya xonalarida o‘quv obyekti bilan ishlashjarayonini tashkil etish.

Amaliy metodlardan bir nechtasini sanab o‘tmoxchimiz.

Mashq metodi – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkun emas.

Mashqlar tizimiga xos xususiyatlar:

Mashqlarning maqsadi, mazmuni va o‘quv jarayonidagi o‘rniga ko‘ra o‘zaro izchilligi va bog‘liqligi. Mashqlar mazmunining didaktik maqsadlarga, o‘quv – texnik talablar va o‘quvchilarning mashqlar mazmuni mustaqillik darajasiga ko‘ra soddadan murakkablikka qarab borishi. Mashqlar davomiyligi va ular o‘rtasidagi tanaffuslarni kurslar bo‘yicha mashqlar o‘tkazish maqsadi va mazmuniga mos bo‘lishi. Shu o‘rinda ushbu metodga qo‘yilgan asosiy talablarni sanab o‘tmoxchiman.

1. Har bir mashq o‘zaro bog‘langan o‘quv va ishlab chiqarish maqsadiga ega bo‘lishi lozim.

2. Har bir mashqdan so‘ng o‘quvchi oldinga intilishi va o‘z soxasining mutaxassisi bo‘lish uchun qadaam qo‘yishi lozim.

3. O‘quv ishlab chiqarish ishlariga o‘quvchi qiziqish bilan yondoshishi va ijobjiy baxs – munozarali bo‘lishi

4. O‘quvchilarda amaliy hatti – xarakatlar bus – butun va aniq mo‘ljalgaolish asoslari mavjudligi.

Laboratoriya ishlari o‘quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, quroq hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish metodlari bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtini sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o‘lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqishundaki, bu metod o‘quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etishga

xizmat qiladi.

U o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko‘nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi. Ushbu metodlar orqali biz professional ta’lim tizimida malakali mutaxasis taylorash imkoniga ega bo‘lamiz.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, bugungi kunda nafaqat nazariy fanlarni balki amaliy darslarni ko‘paytirish, o‘quvchilarni soxa mutaxasislik fanlari bo‘yicha ishlab chiqarish amaliyotlariga jab etish lozim. Yildan – yilga rivojlanib borayotgan ilm – fan nazariy bilimlarni amaliyot bilan birga tengma teng bo‘lishini taqazo qilmoqda. Yuqoridagi metodlardan foydalanib yuqori natijaga erishish mumkun. Bir kadrning profissional darajaga yetishi uchun ham nazariyani ham amaliyotni juda yaxshi o‘rganilishi talab qilinadi. Zero yuqori darajadagi profissional kadrlar kelajagimiz poydevoridir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.Avazov va boshqalar “Amaliy kasbiy ta’lim metodikasi va texnologiyalari” Toshkent. 2014 - yil
2. Munavvarov A.Q.”Pedagogika” T. “O‘qituvchi” Toshkent 1996 - yil
3. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. Toshkent. 2008 -yil
4. Internet materiallari : www.ziyonet.uz, www.fayllar.org, www.jizpi.uz,
5. https://staff.tiame.uz/storage/users/767/articles/y189rvW2XFyQJkj5tcRXWJRE3VCo_pc62CF8XyzI.pdf
6. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (ИКТ) Темирова Ш.Р, Хидралиев Р.Т <https://scientists.uz/uploads/conferences/0019/5.65.pdf>